

2026-yil 1-chorakdagi ishlab chiqarish natijalari

O‘zbekiston, Navoiy – 2026-yil 17-aprel – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“NKMK” AJ) 2026-yil 1-chorakdagi faoliyati natijalarini e’lon qiladi.

2026-yil 1-chorakdagi asosiy natijalar

- Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 737 ming troy unsiya oltinni tashkil etdi.
- 44 trln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.
- Investitsiya dasturi doirasida 110.5 mln. dollarlik mablag‘ o‘zlashtirildi.
- 891 ta yangi ish o‘rni yaratildi.
- Mahalliyashtirish dasturi doirasida 353.4 mlrd. so‘mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.
- Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida 2 trln. so‘mlik mahsulot xarid qilindi.

Investitsiya loyihalari

- Kombinatda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirishda “Muruntov” konini o‘zlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiya loyihasi muhim ahamiyat kasb etadi. Joriy yilda “Muruntov” konini o‘zlashtirish V navbat. 2-bosqich” loyihasiga start berilib, yanvar-mart oylarida loyiha doirasida konda 48,6 mln. kubometrda ortiq tog‘ jinslari qazib olindi. Markaziy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasiga zamonaviy, yuqori texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega, yuk ko‘tarish quvati 221 tonna bo‘lgan “HITACHI EH4000AS-3” rusumli 2 ta kon avtoag‘dargichi va “CAT D10” rusumli 1 ta zanjirli buldozer keltirildi. Shuningdek, konda davriy oqim tehnologiyasining konveyer liniyalarini qurish ishlari boshlangan.

- “Qoqpatas va Dovg‘iztov oltin konlarida ma’dan qazib olish (III navbati)” investitsiya loyihasi doirasida joriy yilning yanvar oyida 3-gidrometallurgiya zavodida yiliga 700 ming tonna oltin tarkibli ma’danni qayta ishlash quvvatiga ega 8-maydalash tegirmoni ishga tushirildi. Shuningdek, zavod chiqindi omborining qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha doirasida joriy yil yanvar-mart oylarida Shimoliy kon boshqarmasi Temir yo‘l transporti boshqarmasiga 1 ta yuqori texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ega teplovoz va 6 ta o‘ziag‘daruvchi yarim ochiq vagon (dumpkar) keltirildi.

- 2026-yilda ham 7-gidrometallurgiya zavodida qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish investitsiya loyihasini amalga oshirish davom etmoqda. Loyiha doirasida zavodda desorbsiya bo‘linmasi, maishiy bino va muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarining qurilishi shular jumlasidandir. Kelgusida mazkur loyiha to‘liq quvvatda ishga tushirilgach, zavodning yillik qayta ishlash quvvatini 25 mln. tonnagacha oshirish rejalashtirilgan.

- Kombinatning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yirik korxonasi – 2-gidrometallurgiya zavodida joriy yilda ham ma’dan qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan ishlar davom etmoqda. Zavodda asbob-uskunalarni modernizatsiyalash, maydalash sexining ikkinchi binosini kengaytirish, 35-tegirmon blokini montaj qilish hamda sorbsiya sexida qo‘shimcha 30 ta sorbsion uskunani barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Barqaror rivojlanish

- Fevral oyida Qiziltepa tumanidagi “To‘dako‘l” dam olish maskanida joylashgan Xalqaro shaxmat maktabida NKMK yoshlar yetakchilari Kengashi va kasaba uyushmasi Kengashi hamkorligida kombinatda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich tashkilot yetakchilari uchun o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi. Mazkur o‘quv-amaliy seminar doirasida yetakchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish, bir-biri bilan tajriba almashishga qaratilgan treninglar, ma‘naviy-ma‘rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.

- 14-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. “NKMK” AJ mazkur tanlovning “Gender tenglikni ta‘minlashda eng faol respublika tashkiloti” nominatsiyasida g‘olib deb topildi.

- Fevral oyida “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan “NKMK” AJ korporativ ESG-reytingi ‘3’ darajasida (1 dan 5 gacha bo‘lgan shkalada, bunda 1 – past xavf-xatar darajasi, 5 – yuqori xavf-xatar darajasini anglatadi) tasdiqlandi va umumiy 51 balldan 54 ballgacha (100 balldan) oshirildi.

- Fevral oyida “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan “NKMK” AJga ISO/IEC 27001:2023 xalqaro standartiga muvofiqlik sertifikatini berildi. Ushbu sertifikat korxonada axborot xavfsizligi menejmenti tizimi va axborotni himoya qilish xalqaro standartlarga muvofiqligi, xavf-xatarlarni boshqarish va maxfiy ma‘lumotlar, kibertahdidlarga qarshi kurashish va bulutli texnologiyalarni himoya qilish ishonchligini tasdiqlaydi.

- Mart oyida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ yoshlari hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talaba-yoshlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida “Orol taqdiri – kelajak avlod taqdiri” shiori ostida ekologik aksiyada ishtirok etib, Orol dengizi hududida 50 ming tup saksovul ko‘chatlarini o‘tqazishdi.

Korporativ yangiliklar

2026-yil 1-chorakda “NKMK” AJ da korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, aksiyador va investorlar oldidagi shaffoflikni ta‘minlash hamda strategik vazifalarni belgilash yo‘nalishida qator ishlar olib borildi.

Strategik nazoratni amalga oshirish maqsadida Kuzatuv kengashining **3 ta** yig‘ilishi o‘tkazildi. Mazkur yig‘ilishlarda biznes-reja ko‘rsatkichlarining ijrosi va operatsion samaradorlik tahlil qilindi. Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit, Strategiya, Tayinlovlar va haq to‘lash qo‘mitalarining **3 ta** yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Qo‘mitalar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida kompaniyaning xavf-xatarlarni boshqarish (risk-management) tizimi yanada takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi kompaniya Ustav fondidagi 100 foiz davlat ulushining aksiyadori sifatida korporativ boshqaruvning xalqaro standartlarini joriy etish hamda davlat manfaatlarini himoya qilish funksiyasini izchil davom ettirmoqda.

Kompaniya haqidagi qo‘shimcha ma‘lumot bilan uning <https://www.ngmk.uz/> veb-saytida tanishish mumkin.